



Inson qadri uchun

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash adolatli jamiyat barpo etish va barqaror rivojlanishga erishishning muhim omili. Shu bois, yurtimizda ushbu sohada katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat tamoyili mustahkamlanib, davlatning majburiyatlari 3 barobar ko‘paytirildi.

IJTIMOIY HIMOYANING
YANGI TIZIMIINKLYUZIV JAMIYAT SARI
ISTIQBOL OCHMOQDA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

PREZIDENTI HUZURIDAGI

IJTIMOIY HIMOYA
MILLIY AGENTLIGI

Ushbu prinsiplar asosida ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Soha tubdan isloh qilindi, ijtimoiy yordamning aniq, maqsadli va manzilliligi ta‘minlashga qaratilgan yangicha yondashuv va mexanizmlar joriy qilindi. Bu sohada keng ko‘lamli islohotlar boshlangan davrdan beri kambag‘allik darajasi deyarli 3 barobar qisqardi.

2016-yilda ijtimoiy himoyaga byudjetdan 2 trillion so‘m sarflangan bo‘lsa, 2024-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 9,8 barobar oshib, 20,3 trillion so‘mga yetdi. Ushbu mablag‘

YAIMning 1,4 foizini tashkil etmoqda. Bu raqamlar mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga qanchalik katta hissa qo‘shilayotganini yaqqol ifoda etadi.

Prezidentimiz mazkur yangi tizimning o‘ziga xos jihati va ahamiyati xususida to‘xtalar ekan, “Jamiyatimizda ijtimoiy adolat va inson qadrini ta‘minlaymiz desak, bu yangi tizimni joylarda samarali ishlatib, muhtoj insonlarga madad va umid bag‘ishlashimiz kerak”, degan edi.

Davomi 3-betda



Munosabat

Yaqinda Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste‘molini tartibga solish hamda tibbiy ta‘limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida sog‘liqni saqlash sohasidagi umumiy holat muhokama qilindi. Shuningdek, tizimdagi dolzarb muammolar, birlamchi bo‘g‘inda tibbiy xizmat sifatini oshirish, raqamlashtirish va sug‘urtani joriy etish, aholini malakali tibbiy xizmat bilan ta‘minlash borasida galdagi vazifalar belgilab berildi. Muxbirimiz soha mutaxassislari va ekspertlarning mavzu yuzasidan fikr-mulohazalari bilan qiziqdi.

Davomi 2-betda

TEZ, QULAY VA SIFATLI
TIBBIY XIZMATAHOLI SALOMATLIGINI ASRASH
HAMDA YAXSHILASHDA MUHIM OMILRAQAMLI
AVLOD
<qizlari>

Innovatsiya

“RAQAMLI AVLOD QIZLARI”

IQTIDORLILAR HAMJAMIYATI, RAQAMLI
KO‘NIKMALAR VA G‘OYALAR MAYDONI

Mehnat tufayli inson yashayotgan tabiiy muhitini o‘zgartirdi. Odam organizmining sof fiziologik funksiyalari, qo‘l va oyoqlarning, bosh va barmoqlarning, tog‘aylar, paylar, suyak va muskullarning shakllanishi ham bevosita mehnat bilan bog‘liq. Bundan tashqari, u insonning nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy, madaniy taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi. Mehnat sabab odam umrini ma‘nan uzaytirish, hayotini yanada sermazmun qilish, har tomonlama boyitish uchun uzluksiz intilib keldi. Turmush tarzini muntazam yaxshilash, takomillashtirishga harakat qildi. Pirovardida mehnat odamni ixtirochiga, bunyodkorga aylantirdi.

XXI asrda o‘sha mehnat sun‘iy intellektni reallikka aylantirib, hayotimizga olib kirdi. Bugun biz foydalanayotgan barcha ijtimoiy platforma, yordamchi chat-botlar aynan sun‘iy tafakkur mahsuli. Ularni ishlab chiqish jarayonida ham maxsus robotlarning beminnat xizmatidan foydalanildi. Odatda, robotlar deganda, ko‘pchilikning tasavvurida insonlardek gaplashib, harakatlanadigan qiyofalar gavdalanadi. Aslida, robot — nisbatan kengroq tushuncha. Smartfoningizdagi ilovalar, dasturlar, deylik, google tarjimon,

lug‘atlar, turli o‘yinlar va hokazolar ham sun‘iy intellektga yaqqol misol bo‘la oladi. Faqat ularning qamrovi kichik bo‘lib, muayyan yo‘nalishdagina sizga yordam berishi mumkin.

Ha, sun‘iy idrok tushunchasi shu qadar kengayib ketdi. Dunyoning u yoki bu burchagida har soatda qilinayotgan olamshumul ishlarning barchasidan shunchaki boxabar bo‘lishga ham ulgurmayapmiz.

Davomi 5-betda



Agrotarmoq

Quyosh nurini shimgan, rosmana xushbo‘y qulupnay pishig‘iga ham yetdik. Tarkibida juda ko‘p foydali moddalar va minerallar bo‘lgan bu rezavor meva mayning birinchi o‘n kunligi, ayniqsa, o‘rtalarida sarxil pishadi. Zamonaviy agrotexnologiyalar natijasida aprel-danoq xalq dasturxoniga yetkazib berilayotgan qulupnaydan dimoqqa yoqimli ifor urilmasa-da, tansiqliq mevani barvaqt to‘tib ko‘rish imkonini bor. Issiqxonalarda-ku qishin-yozin qulupnay pishadigan bo‘lib qoldi.

QULUPNAYNING
ZO‘RI KERAKMI?

UNDA UCHQO‘RG‘ONGA KELING

Turiga ko‘ra mavsumda, ya‘ni shu kunlarda 15 mingdan 65 ming so‘mgacha sotilayotgan qulupnay asosan, Namanganda yetishtirilishi, qulupnaychilik Uchqo‘rg‘on tumani aholining daromad manbaiga aylangani haqida ko‘pchilik yaxshi biladi. Hududda Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan olib kelingan 10

ga yaqin eksportbop qulupnay navi mahalliyashtirildi. Jahon standartlariga mos kelayotgan bunday navlar eksport talablariga ham to‘la javob beradi. Kuniga 5-6 tonna qulupnay sotayotgan tadbirkorlar qolganlarning ham g‘ayratini oshiryapti.

Davomi 4-betda

TARIXIY TASHNALIK
BARHAM TOPMOQDA

4

MILLIY VA DUNYOVIY
QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI
YANGI KONSEPSIYADA
AKS ETGAN

6

TO‘Y SHAKSIY
MASALA, BIROQ...

6



ZARBDOR TAJRIBASI

ODAMLAR HAYOTINI O‘ZGARTIRGAN EZGU TASHABBUS

Zarbdor tumani uzoq yillar iqtisodiy salohiyati past, infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan, ishsizlik darajasi yuqori hududlardan biri sifatida tilga olinar edi. Bu yerda kichik biznes yoki eksport haqida gap ketsa, ko‘pchilik buni orzu yoki xayol sifatida qabul qilardi.

Yaqin-yaqingacha iqtisodiy imkoniyati deyarli yo‘q hudud sifatida tilga olingan tumanda bugun tamoman boshqacha manzara hukm surmoqda. Iqtisodiy islohotlar, aholi bandligini ta‘minlash, agrar sohadagi ilg‘or loyihalar va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qilinayotgan ishlar tufayli tumanda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Islohotlar, tashabbus va shijoat tufayli ishlab chiqarish, tadbirkorlik va eksport salohiyati yuksalmoqda. O‘tgan yilning o‘zida tumanda 13 ming 500 kishining bandligi ta‘minlandi. Bu shunchaki gap yoki raqam emas, xayollardan hayotga ko‘chgan oddiy haqiqat.

Eng muhimi, islohotlar odamlar ongini o‘zgartirdi. Kelajakka ishonchini mustahkamladi. Zarbdor endi faqat qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan hudud emas. Tumanda tadbirkorlik rivojlanmoqda, zamonaviy klasterlar tashkil etilib, eksportpor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bu jarayonda xorijlik va mahalliy sarmoyadorlar faol qatnashyapti.

“Zarbdor Parranda” MCHJ ichki bozorga arzon va sifatli parranda go’shti hamda tuxum yetkazib bermoqda. Shuningdek,

Prezidentimiz tomonidan e’tirof etilib, Zarbdor tajribasi sifatida butun mamlakat bo‘ylab ommalashayotgani odamni mamnun etadi.

Kecha ishsiz yurgan odam bugun yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, mikrokredit yoki imtiyozli mablag‘ evaziga issiqxona quryapti, kichik korxona ochyapti. Banklar tomonidan ajratilgan resurslar to‘g‘ridan to‘g‘ri xalq manfaatiga xizmat qilmoqda.

Tumanning Oybek mahallasida yashovchi Nargiza Mamatqulova “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida 50 million so‘m imtiyozli kredit asosida tikuv mashinalari olib, “Bahor liboslari” oilaviy korxonasini tashkil etdi va 5 ayol-qiz bandligini ta‘minladi.

Yangiobod mahallasida yashovchi Sardor Abdusattorov oldin faqat mavsumiy ishlar bilan shug‘ullanardi. Dehqonchilik qo‘lidan kelsa ham iqtisodiy imkoniyati cheklangani sababli o‘z issiqxonasini barpo etishga qiynalardi. Mahallalarda hokim yordamchisi vazifasi joriy etilgach, uning orzusi sari yo‘l ochildi. Davlatning beg‘araz yordami — subsidiya va imtiyozli kredit asosida tomorqasida ichxamgina issiqxona



“Jizzax organik” MCHJda xorijdan keltirilgan angus zoti qoramolni ko‘paytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan 22 million dollarlik loyiha doirasida yiliga 20 ming tonna sut va 5 ming tonna go’shtni qayta ishlash ko‘zda tutilmoqda.

Uzoq yillar melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmagligi tufayli yaroqsiz holga kelib qolgan yerlarda sun‘iy suv havzalari barpo etilib, baliq yetishtirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu loyihalar tufayli 200 oila doimiy daromad manbaiga ega bo‘ladi.

— Tadbirkorlik va ishlab chiqarishga aloqador har bir tashabbus o‘zining mevasini bermoqda, — deydi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Qilichbek Nurmatov. — Shu bois, joriy yilda sanoat mahsulotlari qiymatini 1 milliard 237,5 million so‘mga, eksport hajmini esa 52,5 million dollarga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. 100,6 million dollarlik xorijiy investitsiyani o‘zlashtirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, 1502 ta loyihaga 63,5 milliard so‘m kredit ajratilishi ko‘zda tutilgan. Bu, o‘z navbatida, ishsizlikni 5,7 foiz, kambag‘allik darajasini esa 5,3 foiz kamaytirishga xizmat qiladi. Tumanimizda aholi daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlar

qurib, gulchilikning o‘zidan yuqori daromad olmoqda.

Ayni kunda Sardor Abdusattorovning tomorqasida 15 ming tupdan ziyod gul o‘stirilmoqda. U gulchilikdan tashqari sabzavot va poliz mahsulotlari, qo‘ziqorin ham yetishtirib sotmoqda.

Zarbdor endi iqtisodiy salohiyati past hudud emas, balki sanoatlashgan va eksportpor mahsulot yetishtiruvchi zamonaviy tuman sifatida rivojlanmoqda.

Joriy yilning birinchi choragida 15 ta ko‘chaning infratuzilmasi yaxshilangani, jumladan, 8 kilometr yo‘l, 4 kilometr elektr, 3,8 kilometr gaz uzatish tarmog‘i ta‘mirlangani, 500 metr piyodalar yo‘lagi, 8 kilometr yangi suv tarmog‘i qurilib foydalanishga topshirilgani, 200 ta xonadon toza ichimlik suv bilan ta‘minlangani ana shu sa‘y-harakatlar samarasi.

Barcha ishning asosida iqtisodiy rivojlanish turadi. Iqtisodiy taraqqiyot bor joyda odamlarning farovonligi, madaniyati yuksaladi. Zarbdor tajribasining mohiyati ham shunda.

**Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



TEZ, QULAY VA SIFATLI TIBBIY XIZMAT

AHOLI SALOMATLIGINI ASRASH HAMDA YAXSHILASHDA MUHIM OMIL

Deputatlik nazorati o‘rnatamiz

► Boshlanishi 1-betda



**Anvarjon NURMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati:**

— Chuqur tanqidiy-tahliliy ruhda o‘tgan yig‘ilishda qator yangi tashabbuslar ilgari surildi. Masalan, endi tibbiyot brigadasi

hamda unga biriktirilgan aholi o‘rtasida huquq va majburiyatlarni belgilovchi ikki tomonlama shartnoma tuziladi. Aholi oilaviy shifokorni erkin tanlashi, bu jarayonlarga xususiy oilaviy shifokorlar ham jalb etilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, fuqarolarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi va salomatligini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Videoselektorda sohaning birlamchi bo‘g‘inini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish, tibbiyot xodimlarining bilimini va davolash sifatini oshirish masalalari muhokama qilindi. Aholi qamrovi, kasalliklar tahlili va murojaatlar turidan kelib chiqib, yangicha ish tartibi belgilandi.

Tibbiy yordamning kafolatlangan paketi tasdiqlanib, uning doirasida tibbiy xizmat va dori-darmon to‘liq byudjetdan qoplanishi ko‘zda tutilmoqda. Poliklinikada akusher-ginekologlar 2 barobar ko‘paytiriladi, har 3 ming bola uchun 1 tadan pediatr shati yangidan qo‘shilishi esa millat genofondini saqlash, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish yo‘lidagi e‘tiborga molik

sa‘y-harakatdir. Tibbiyotni rivojlantirish bo‘yicha yig‘ilishda aytilgan tashabbuslar ijrosi joylarda, eng avvalo, birlamchi bo‘g‘inda so‘zsiz ta‘minlanishi talabi qo‘yildi.

Yig‘ilishda har bir vazir, hokim, deputat va senator joylardagi sharoitni o‘z ko‘zi bilan ko‘rsa, islohotlar quyi bo‘g‘inga tezroq yetib borishiga xizmat qilishi ta‘kidlandi. Bu talab biz — deputatlar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Joylarda aholi bilan uchrashuvlarimizda aytilgan masalalarga alohida e‘tibor qaratamiz. Kerak bo‘lsa, ushbu vazifalar ijrosi ustidan deputatlik nazorati o‘rnatamiz.

Hozir aholi va tibbiyot muassasalarini arzon va sifatli dori-darmon bilan ta‘minlash eng dolzarb masalalardan. Shu bois, yig‘ilishda dori-darmon ishlab chiqarish, olib kelish, retseptli dorilarni dorixonada sotish, bu jarayonni raqamlashtirish, tibbiyot tizimida mablag‘dan oqilona foydalanish, sug‘urtani joriy etish, korrupsiyani yo‘qotish, odamlarni rozi qilish bo‘yicha islohotlar ijrosi ustidan

to‘liq nazorat o‘rnatish lozimligi qayd etildi.

El roziligida gap ko‘p. Sog‘lom millat esa jamiyatning bebaho boyligi. Inson qadri uchun qilinayotgan ushbu xayrli tadbirlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad ham shu. Yig‘ilishda har bir poliklinika, shifoxona, markazda odamlarni tibbiyotdan rozi qilish, qat‘iy intizom o‘rnatish va madaniyat olib kirish, buning ijrosini muntazam muhokama qilib, rahbarlarning javobgarligini ko‘rib chiqish uchun mas‘ullar belgilandi. Bularning barchasi xalqimizning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, umr davomiyligini oshirish, sog‘lom, baxtli va farovon hayot kechirishiga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Sohadagi islohotlar natijasida bemorlarning yuqori sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati yanada kengayadi. Bu esa xalqimizning yashash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazaridan, davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalar ijrosini ta‘minlashda barchamiz faol va tashabbuskor bo‘lishimiz kerak.

Bu sohaga malakasiz yondashib bo‘lmaydi

**Shuhrat BOYMURODOV,
Toshkent davlat tibbiyot
universiteti rektori:**

— Yig‘ilishda ilgari surilgan dolzarb vazifalar orasida birlamchi tibbiyot bo‘g‘inida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi talablar alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu ustuvor yo‘nalish xalq salomatligini ta‘minlashda eng muhim halqa sifatida yana bir bor e‘tirof etildi.

Tibbiyot sohasini baholash milliy markazi tashkil qilinishi sohadagi muhim yangiliklardan biri bo‘ldi. Bu tajriba rivojlangan davlatlar amaliyotida samara bergan. Bitiruv imtihonining OTMd o‘tkazilishi, bilim va ko‘nikmalarni baholovchi shaffof tizim yo‘qligi oqibatida mutaxassislar yetarli bilim va amaliy ko‘nikmasiz mehnat bozoriga kirib kelayotgan edi. Endi tibbiyot OTMlari va texnikum bitiruvchilarining zamonaviy diagnostika va davolash usullarini o‘zlashtirishi shaffof tizim asosida alohida baholanadi. Bilim va ko‘nikmalarni o‘qitgan mutaxassis emas, balki mustaqil tashqi ekspertlar



Nazariy bilim va amaliy ko‘nikma birga shakllantirilishi shart. Zero, inson salomatligidek muhim masalaga malakasiz yondashib bo‘lmaydi. Tibbiyot oliygohlari huzuridagi birorta klinika ularning tasarrufida emasligi sifatli amaliy ko‘nikma hosil qilishga xalal bermoqda. Endi har bir tibbiyot OTMga muayyan klinika biriktiriladi. Natijada talabalar universitet klinikasida malaka oshiradi. To‘g‘ri, hozir ham talabalar klinikada amaliyot o‘taydi, ammo jarayonni klinika rahbariyati boshqaradi. Yangi tartib bo‘yicha klinika tibbiyot OTMlari tasarrufiga o‘tkaziladi. Tegishli

MAZKUR VAZIFALARNI UDDALASH UCHUN QO‘LIMIZDA YETARLI IMKONIYAT, JAMOAMIZDA SALOHİYAT, TAJRIBA VA INTELLEKTUAL RESURSLAR MAVJUD. AYNIQSA, BITIRUVCHILARNING AMALIY KO‘NIKMASINI MUSTAHKAMLASHDA TIBBIYOTNING BIRLAMCHI BO‘G‘INIDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISHGA DOIR YONDASHUV JUDA MUHIM.

tomonidan baholash tizimi orqali adolat va shaffoflik ta‘minlanadi. Bo‘ljak shifokorning milliy markazda imtihon topshirishi uning o‘z kasbiga mas‘uliyatini oshiradi.

Sohada dual ta‘limni to‘liq joriy qilish ham muhim masalalardan biri sifatida qayd etildi. Bugun tibbiyot oliygohi bitiruvchisi nazariy bilim olayotgan bo‘lishi mumkin, ammo uning amaliy bilimini yetarli deb bo‘lmaydi. Bu birlamchi tizimdagi tibbiy xizmat sifatida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

kafedralar klinika bo‘limlaridagi davolash ishlarni boshqaradi. Bu esa nazariy va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash, tibbiy ta‘limni hayotga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur vazifalarni uddalash uchun qo‘limizda yetarli imkoniyat, jamoamizda salohiyat, tajriba va intellektual resurslar mavjud. Ayniqsa, bitiruvchilarning amaliy ko‘nikmasini mustahkamlashda tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inidagi muammolarni hal etishga doir yondashuv juda muhim.

**Go‘zal MUHAMMEDOVA,
Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi
qo‘mitasi mas‘ul xodimi:**

— Yuqumli kasalliklar, turli mikroba va bakteriyalar notoza qo‘llar orqali yuqishi tibbiyotda ma‘lum. Notoza qo‘l orqali yuqadigan kasalliklar ro‘yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Yuqumli kasalliklardan saqlanish, aholining tibbiy madaniyatini shakllantirishda “Toza qo‘llar” tamoyilining o‘mi alohida.

“Yig‘ilishda shu masalaga ham alohida to‘xtalib o‘tildi. Yuqumli kasalliklarning 35-40 foizi oddiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida yuzaga kelayotgani qayd etildi. Har bir ijtimoiy soha muassasasi toza-ozoda bo‘lishi, odamlar uchun qulay sanitariya-gigiyena sharoiti yaratilishi shartligi ta‘kidlandi. Shu munosabat bilan barcha maktab, bog‘cha, texnikum, oliygox, poliklinika va shifoxonalarda “Toza qo‘llar” dasturi amalga oshirilishi nazarda tutildi.

Bu dastur doirasida qanday ishlar rejalashtirilmoqda.

Yig‘ilishda “Tibbiyotda 90 kunlik o‘zgarishlar” dasturi boshlanishi e‘lon qilindi. Kutish joylarida qulay o‘rindiqlarni ko‘paytirish, navbatni tartibga keltirish, “ona-bola” xonalarini tashkil qilish, nogironligi borlar erkin harakatlanishi uchun kirish-chiqish joylari, xona va yo‘laklarda inklyuziv muhit yaratish uchun mas‘ullarga tegishli topshiriqlar berildi. Maqsad bitta: aholining sanitariya madaniyatini yuksaltirish, tartibga o‘rgatish, fayzli muassasalarda sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish va odamlarning kayfiyatini ko‘tarish. El roziligi yo‘lida qilinayotgan bu xayrli sa‘y-harakatlar inson qadri nechog‘liq baland ekani va salomatligiga bo‘lgan e‘tiborning yorqin dalilidir.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA yozib oldi.**

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA tayyorladi.**

QULUPNAYNING ZO‘RI KERAKMI?

UNDA UCHQO‘RG‘ONGA KELING

Agrotarmoq

Boshlanishi 1-betda

Tasavvur qiling: Uchqo‘rg‘ondagi 2500 gektar maydonda qulupnay g‘arq pishdi. Dehqonlarning qo‘li qo‘liga tegmaydi. Ish qizg‘in. Axir hademay terim yakunlanadi. Shu qisqa muddatda ancha-muncha ishsiz yurgan uchqo‘rg‘onliklar yaxshigina daromad qilib oladi. An‘anaga aylangan qulupnay festivali, qulupnay sayli esa xorijlik sayyohlarda ham qiziqish uyg‘otayotir. Chunki bu ehtiyojning ortishi, foydaning ko‘payishi degani. Turfa navli qulupnaylar Qirg‘iziston orqali Qozog‘iston, Rossiya va Xitoy bozorlarigacha xaridorgir bo‘lib borayotgani sababi shunda.

Birlamchi e‘tibor — ehtiyojmand oilalarga

Qulupnaychilikning ish o‘rni ochish, eksport hajmini oshirishdagi hisssasi Uchqo‘rg‘ondagi aholining 70 foizdan ko‘prog‘i shu ish bilan bandligida ko‘rinadi. Tuman hokimining

birinchi o‘rinbosari Hojiakbar Nosirovning aytishicha, hududdagi Qayqi qishlog‘i to‘liq qulupnaychilikka ixtisoslashgan. 16 mahallaning 35-40 ming odami shu ish bilan shug‘ullanyapti. Qulupnaychilikning kooperatsiya usulida tashkil qilinishi, “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida ish yuritilayotgani odamlarga har tomonlama qulay bo‘lyapti. Zero, ilg‘or tadbirkorlar aholiga ko‘chat tarqatadi, yerga ishlov berish, ko‘chatni qanday parvarishlashni o‘rgatadi. Hosil pishib yetilgach, o‘zi sotib oladi. Bu esa ortiqcha ovoragarchilikka chek qo‘yadi.

Qariyb 3000 mingga yaqin odam yashaydigan Istiqlol mahallasi ahli qulupnay yetishtirishning hadisini olgan. Shuning uchun bu mahalla butun vodiya tanildi. Ayniqsa, 15 yillik tajribaga ega Fathiddin Asqarov kabi qulupnaychilar bu ishni endi boshlaganlarga namuna bo‘lyapti. U ko‘p miqdorda turfa navli qulupnaylarni yetishtirib, qo‘shni davlatlarga ham sotyapti.

— Hozir qulupnay yoppasiga pishadigan payt. Ertalabdan quyosh botguncha teryapmiz.



Nafaqat eksportga, xalqimizga ham ko‘rinishi chiroyli, ta‘mi a‘lo mevalarni yetkazypmiz. Bu yil asosan, Osiyo navini ekkdik. Bozorbopligi, odamlarga manzur bo‘layotganidan xursandmiz, — deydi bog‘bon.

Prezidentimizning ehtiyojmand oilalarga auktsion orqali 20 sotixdan yer ajratish borasidagi tashabbusi va tegishli qarorlari asosida Navbahor mahallasida ham ijtimoiy reyestrga kiritilgan 150 nafardan ziyod odamga jamii 25 gektardan ortiq yer berilgan edi. Mahallaga birlashtirilgan hokim yordamchisi Nodir Habibullayevning aytishicha, yerdan foydalanishda “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyilidan kelib chiqib, qulupnaychilik tanlandi. 22 gektar yer yoshlarga berildi. Mahalladagi ishsiz, ijtimoiy himoya reyestridagi fuqarolarga esa 15-20 sotix yer maydoni 30-yilga ijarasida taqsimlandi. Yer egalariining hammasi bundan

unumli foydalanyapti. Qulupnayning mahalliy va xorijiy navlaridan yiliga 20-30 million so‘mgacha daromad olinadi. Dehqon bozorlaridan ortgani asosan, Qirg‘iziston, Rossiyaga yuborilyapti. 15 sotix yer bir kunda kamida 4-5 kishining bandligini ta‘minlaydi. O‘rtadagi bir oyni hisobga olmaganda, ish ishga ulanadi. Ya‘ni iyul oyidan keyingi yilga ko‘chat ekish ishlari boshlanadi.

— 2022-yili 15 sotix yerni ijaraga olganmiz. Qulupnay biz uchun eng serdaromad ekin. Shuning uchun har yili qulupnay yetishtiryapmiz. Ayni paytda Izabella navining hosilini tera boshladik. Mazasi, ko‘rinishi boshqa navlarnikidan farq qilgani uchun kilosini ichki bozorga 40-50 ming so‘mdan yetkazib beryapmiz. Mijozlar o‘zi olib ketadi, — deydi yosh tadbirkor Shavkat To‘xtaboyev.

Yaxshi daromad keladigan ishni mahkam tutish kerak. Bir ishni boshlab, yo‘lga qo‘yib olish oson kechmaydi axir. Uch yillik tajriba bilan ham mo‘may daromadga kirgan yoshlar qulupnaychilikni bir chetga surib qo‘ymasa kerak. Chunki keladigan daromad ehtiyojni qoplashga bemaol yetadi. Yana bir yer egasi — Akbar Mo‘minovning so‘zlari fikrimizni tasdiqlaydi:

— Avgustda 30 sotix yerda Charli navli qulupnay niholini ekkandik. Fevralda ko‘chatlarni plynka bilan qopladik. Mana, birinchilardan bo‘lib hosilga kirdi. Oilamiz a‘zolaridan tashqari mahallada ishsiz yurgan yoshlar va ayollar ham ishli bo‘ldi. Bir kunda 600-700 kilogacha hosil terib olib, el qatori pullayapmiz. Toppanimiz xarajatimizga yetib ortadi.

Daromad ham, eksport ham, ish o‘rni ham ko‘payadi

Uchqo‘rg‘onda bu yil 226 gektar bog‘ qator oralarida, 1243 gektar ochiq yer maydonlarida, 997 gektar aholi tomorqalarida, 34 gektar issiqxona xo‘jaliklarida, 2,4 gektar esa gidroponika usulida qulupnay yetishtirildi. Namanganda 2025-yilda 3400 gektar sanoatlashtirilgan bog‘ va tokzorlar, 4 ta innovatsion issiqxona tashkil etish belgilangan. Shundan bittasi Uchqo‘rg‘onda qurilishi rejalashtirilgan. Hozir 3 ta yirik issiqxonada gidroponika usulida qulupnay yetishtirilyapti. Masalan, umumiy maydoni 2 gektarlik shunday issiqxonalardan birida 70 dan ziyod doimiy ishchi o‘rni mavjud. Yiliga 70 tonna hosil terib olinib, 10 tonnasi xorijga yuborilyapti. Bunday ko‘rsatkichlar sohani yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Shu ma‘noda, endi 15 gektar maydonda gidroponika usulida kooperatsiya asosidagi qulupnaychilik klasteri tashkil etilyapti. Gidroponika usulida yetishtirilayotgan qulupnay mahalliyalaridan 2-3 barobar qimmat turadi. Bunday usulning yana bir jihati bor: ekin yil bo‘yi hosil beradi. Qish mavsumida bir kilo qulupnay 300-350 ming so‘mgacha sotiladi. Mavsumda 200, boshqa payt 80-100 odam ish bilan ta‘minlanadi. Chunki birgina issiqxonada pishgan hosilni yig‘ib olishga kamida 150 kishi kerak bo‘ladi.

Tashkil etiladigan klaster yer maydonini birinchi bosqichda kam ta‘minlangan, ehtiyojmand 50 ta oilaga bo‘lib berish rejalashtirilgan. Ularga ish o‘rgatish uchun alohida o‘quv markazlari ochiladi. Bu orqali bir mavsumda 900 ming tup ko‘chat ekiladi va yiliga 350 tonnadan ortiq hosil olinadi. Hosilning 25 tonnasini qo‘shni mamlakatlarga eksport qilish ko‘zda tutilyapti. Birinchi bosqichning o‘zidayoq 10 milliard so‘mga yaqin foyda ko‘rilishi taxmin qilinganida ham, sarflangan xarajat bemaol qoplanadi. Eng keraklisi, 150 kishi doimiy, 300-400 odam mavsumiy ish bilan band bo‘ladi.

Bu shunchaki quruq gap yoki raqambozlik emas. Yaxshi niyat — yarim mol. 2024-yilda 30 ming tonnadan ziyod hosil yetishtirilgan bo‘lsa, bu yil 80 ming tonnaga yetkazilgani ham buning amaldagi ko‘rinishi. Qolaversa, qishloq xo‘jaligida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar yetishtirish va ularni qayta ishlash bo‘yicha ustuvor vazifalar ijrosi qulupnaychilikni Uchqo‘rg‘on iqtisodiyotining drayveriga aylantirdi. Bu esa nafaqat namanganliklarning, balki butun mamlakatimizning manfaatiga xizmat qiladi.

Munojat MO‘MINOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Islahotlar amalda



TARIXIY TASHNALIK BARHAM TOPMOQDA

Bunga ancha bo‘ldi. Ilk marta Ko‘kdala tumanidagi qaysidir qishloqqa yo‘lim tushdi. Qishloqqa kiraverishda har bir xonadon darvozasi oldida turli sig‘imdagi suv idishlari qo‘yilgandi. Bunga qiziqib, bir hovli oldida to‘xtadim. Yoshi chamasi yetmishlarga yaqinlashib qolgan onaxon kimnidir kutayotgandek olisga qaragancha o‘tirardi. Meni ko‘rib o‘rnidan turdi. Salom-alikdan so‘ng bu idishlar nega har bir darvoza oldida terib qo‘yilganini so‘radim.

— Mehmonsiz, shekilli? Bu idishlar ichimlik suv uchun. Bir ozdan so‘ng katta mashinada suv keladi. Shundan olib qolamiz, — deydi onaxon.

— Siz ham suv kelishini kutib turibsizmi?

— Ha, shu desangiz, ertalab suv tugagan ekan. Tomoq ham qurib qoldi. Quduq suvi sho‘r. Boshqalar zarur holda ichib ketaveradi. Men hech shundan icholmadim. Toza suv kelib qolar deb o‘tiribman. Suv mashina ham ko‘rinish bermaydi hech. Kelib qolar degan umidda yo‘liga qarayapman-da.

— Bu idishlar ancha kichik. 20-30 litr suv ketadi. Bu qanchaga yetadi? — deyman qiziqib.

— Bu faqat ichish uchun. Qolgani quduqdan. Har ikki kunda mashina bilan kelib, tarqatib ketadi. Suvning har tomchisi biz uchun aziz. Avaylab ishlatsak, bemaol yetadi. Qachondir ko‘chalarimizga ham boshqa joylardagi kabi ichimlik suv tarmog‘i tortilar. Shunda to‘yib suv ichamiz-da, bolam...

— Albatta. Bir kun bu yerlarga ham suv keladi, — deya o‘zimcha onaxonning ko‘nglini ko‘tarishga harakat qildim. Negadir o‘zim ham qachondir bu yerlarga ichimlik suv kelishini chin dildan istayotgandim...

Shu qisqagina suhbatimizdan so‘ng kimdir toza suvni behuda sarflayotganini ko‘rsam, qachondir ko‘chasiga suv kelishini intizor kutib, yo‘lga termilib o‘tirgan ona yodimga kelaveradi. Tomchisi taylota teng suvni o‘ylamasdan isrof etayotganlar bu holatni tasavvur ham qila olmasa kerak.

Oradan yillar o‘tib, Ko‘kdala alohida yangi tuman sifatida tashkil etildi. Natijada yangi hududni rivojlantirish uchun barcha yo‘nalishlarda islohotlar amalga oshirila



boshlandi. Shu qatorda aholining ichimlik suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish borasida ham qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bosqichma-bosqich chekka qishloqlarga quvurlar tortilib, qurilish ishlari boshlab yuborildi. Buning natijasida tarixda ilk bor xonadonlarga ichimlik suv kirib bormoqda.

— Shu paytgacha hovlimizga ichimlik suv kirib kelishini tasavvur ham qila olmasdik, — deydi tumanidagi Ko‘kdala mahallasi raisi Umar Julbulov.

— Tumanimizda birinchilardan bo‘lib mahallamizga obihoyat kirib keldi. Odamlarimizning xursandligini aytmayisizmi. Ilgari qachon mashinada olib kelarkan deya soatlab kutishga majbur bo‘lardik. Ko‘pincha shu ham kelmay qolardi. Bugun har bir eshik oldiga quvur orqali suv kelib turibdi. Hozir birinchi bosqich to‘liq amalga oshirilib,

mahallamizdagi 250 ta xonadonga suv tortildi. Keyingi navbatda qolgan hovlilarga ham kirib boradi. Eng muhimi, harakat boshlandimi, albatta, natija bo‘ladi. Bundan aholimiz mamnun.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Ko‘kdala tumanida bugungi kunda 192 mingdan ziyod fuqaro istiqomat qiladi. Shundan 72 mingdan ortig‘i, ya‘ni 37,5 foizi markazlashgan va aholining shaxsiy artezian quduqlari yordamida toza ichimlik suv bilan ta‘minlangan.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash bo‘yicha 1,7 milliard so‘mga “Umakay”, “Qo‘qchorbuloq”, “Yashiltepa” va “Suvliq” MFYlarda 4 ta artezian quduq qazilib, foydalanishga

topshirildi. Buning natijasida 17,6 ming aholining suvga bo‘lgan ehtiyoji qondirildi. Evaziga tumanda toza ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 46,6 foizga yetdi.

Prezidentimizning 2022-yil aprel oyida Ko‘kdala tumaniga tashrifi davomida bergan topshiriqlariga asosan, qator loyihalar amalga oshirildi. Xususan, tuman markazi Yettitom shaharchasidan ichimlik suv inshooti va tarmoqlarini qurish yakuniga yetkazildi. Dastlabki bosqichda rejalashtirilgan 4 kilometr tarmoq tortilib, 4 ta artezian quduq qazildi. Shu bilan birga, suv hovuzlari tayyorlanib, nasoslar o‘rnatildi. Ikkinchi bosqichda ishlar shaharcha ichidagi obyektlar bilan birgalikda davom ettirilmoqda. Buning natijasida yana qo‘shimcha 13,4 ming kishi toza ichimlik suv bilan ta‘minlanadi va tumanda aholining ta‘minlanganlik darajasi 53,6 foizga chiqadi.

— Keyingi yillarda tumanda aynan ichimlik suv ta‘minoti bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda, — deydi “Qashqadaryo suv ta‘minoti”AJ Ko‘kdala tumani filiali muhandisi Saidqul Xoliqov. — Joriy yil boshidan Ko‘kdalada yirik loyihaga start berilgandi. Hozirga qadar mazkur ishning yarmidan ortig‘i bajarib bo‘lindi. Ya‘ni shu paytga qadar eng og‘ir hudud hisoblangan mahallalarga suv ta‘minotini yaxshilash uchun qizg‘in ish ketmoqda. Bunda Chiroqchi tumanidagi “Beschashma” MFY hududidan artezian quduq orqali suv olish inshooti barpo etilmoqda. U yerdan olingan suv Ko‘kdala tumanidagi “Ayritom” va “Sho‘rquduq” MFYlar aholisiga yetkazib beriladi.

Rejaga ko‘ra, “Beschashma” MFYda 4 dona tik artezian quduq qazilib, “Sho‘rquduq” MFYgacha 17 kilometr tarmoq tortildi. Ayni paytda 141 kilometr ichki tarmoq tortish va 2 ta rezervuar qurish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu ishlar yakunlangach, Sho‘rquduq va Ayritom mahallalaridagi 9 mingdan ortiq aholi toza ichimlik suv bilan ta‘minlanadi. Qiymati 39 milliard so‘mdan ziyod mazkur loyiha ishga tushishi evaziga tumanda toza ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 64 foizga yetkaziladi.

Aslida, yuqoridagi tahlillar shunchaki ko‘rinishi mumkin. Lekin uning zamirida odamlarning yillar davomida amalga oshmagan orzulari yotibdi. Tarixiy tashnalik qondirilib, aholining roziligi ortmoqda. Muhimi, toza ichimlik suv xonadonlarga kirib borishi odamlarning sog‘lom turmush kechirishiga imkon beradi. Bunday o‘zgarishlar qisqa fursatda butun tuman hududini qamrab olishi shubhasiz.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugunning gapi



BAHORNING ISSIQ KELISHI chigirtkalar ko‘payishiga sharoit yaratdi

Shu kunlarda hududlarda zararli chigirtkalar ko‘payishiga oid ma‘lumotlar ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Masalan, yaqinda Dehqonobod tumanining Beshbuloq mahallasida marokash chigirtkasi uchragani haqida xabarlar tarqaldi.

Chindan ham hozir dala va yaylovlarda chigirtkalar galasini kuzatishimiz mumkin. Mutaxassislar fikricha, bu yil chigirtkalarning tarqalish ko‘lami o‘tgan yillardagiga nisbatan keng. Bu ob-havoning ancha issiq kelgani bilan bog‘liq.

Zararli chigirtkalar qulay ob-havo sharoitida ko‘payib, ommaviy tarqaladi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini zararlaydi. Dehqonga ham, davlatga ham katta iqtisodiy zarar keltiradi. Ular shunisi bilan xavfli.

Hozirgacha mamlakatimiz bo‘yicha salkam 485 ming 163 gektar maydonda kuzatuv o‘tkazilgan. Shundan 273 ming 180 gektarida chigirtka tarqalgani aniqlandi. 251 ming 152 gektar yerda esa ularga qarshi kimyoviy kurash chorasi ko‘rildi.

Kuchaytirilgan nazorat tadbirlari Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida hamon davom etyapti. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Navoiy, Toshkent viloyatlarida zararkunandaga qarshi yerga kimyoviy ishlov berilmoqda.

Mamlakatimizda asosan, marokash va saksovil buki chigirtkasi uchrayapti. Prognozga ko‘ra, joriy yilda 608 ming gektardan ortiq maydonda zararli chigirtka tarqalishi ehtimoli bor. Biroq bu ko‘rsatkich o‘zgarishi mumkin.

Shu bois, ayni paytda chigirtkaga qarshi kurash ishlari sutkalik rejimga o‘tkazilgan. Hududiy xizmatlar rahbarlari hamda agronomlarning telefon raqami O‘simliklar

karantini va himoyasi agentligi rasmiy sahifalarida joylashtirilgan.

Umuman, bu borada samarali chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Jumladan, zararkunandalar tarqaladigan o‘choqni yo‘q qilish va tarqalishining oldini olish uchun dala maydonlari, yaylovlar va transchegaraviy hududlarda muayyan ishlar qilyapty. Mutaxassislardan iborat maxsus guruhlar zamonaviy transport va kimyoviy vositalar bilan to‘liq ta‘minlangan.

Shu o‘rinda kichik eslatma. Yurtdoshlarimiz biror hududda zararli chigirtkalarga duch kelsa, agentlikning maxsus 1288 qisqa raqami yoki (71) 202-10-00 telefon raqami orqali murojaat qilishi mumkin.

Mamlakatimiz chigirtkalar ko‘payishi va tarqalishi uchun iqlim jihatidan juda qulay hududda joylashgan. Xususan, yurtimiz sarhadlarida 200 turdagi chigirtkani uchratish mumkin. Tabiiyki, ularning to‘da hosil qiluvchi 6-8 turiga qarshi kurash tadbirlari har yili o‘tkaziladi. Ushbu sa‘y-harakatlar natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlari, saksovilzor va yaylovlarga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni oldi olinmoqda.

Bobur HAMROYEV, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari

“O‘zbekiston Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan “Digital Generation Uzbekistan” nodavlat notijorat markazi bilan hamkorlikda shu yil 24-29-aprel kunlari “Renessans” sog‘lomlashtirish oromgohida navbatdagi “Raqamli avlod qizlari — 2025” respublika tanlovi o‘tkazildi.



Boshlanishi 1-betda

Raqamlashgan zamon butun dunyoda erkaklar bilan birga xotin-qizlarning hayotini ham yaxshilash uchun yangi va misli ko‘rilmagan imkoniyatlar eshigini ochdi. Bugun raqamli texnologiyalar hayotining barcha jabhasini, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlarni jadal o‘zgartirmoqda. Ko‘pdan buyon bir chekkada qolgan ayol-qizlar o‘zini o‘nglab olishi uchun yangidan yangi tayanch nuqtalari, ustunlarini vujudga keltirmoqda.

Ayni paytda ayollarning ilmiy-texnologik faoliyatda nufuzi va ahamiyatini yanada oshirish, jumladan, olimlarga va g‘oya mualliflariga ijtimoiy muammolarni o‘z vaqtida hal etishga ko‘maklashish, tadqiqotlar, startaplarni amalga oshirish uchun tashkiliy imkoniyatlar yaratish, ilmiy faoliyatda gender diskriminatsiya muammosiga to‘liq barham berish, ijodkor, ixtirochi ayol-qizlar uchun nufuzli mukofotlar ta‘sis etish, tadqiqot grantlari, xorijiy stajirovka dasturlarini kengaytirish, akademik mobilligini oshirish, innovatsion g‘oyalarini tijoriylashtirish, qisqasi, ilm-fanni ijtimoiy taraqqiyotning drayveri va generatoriga aylantirish mamlakatning keyingi rivojida samarali yechim ekanini davlat ham, jamiyat ham allaqachon anglagan.

Shu bois, O‘zbekiston Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan “Digital Generation Uzbekistan” nodavlat notijorat markazi bilan hamkorlikda shu yil 24-29-aprel kunlari “Renessans” sog‘lomlashtirish oromgohida navbatdagi “Raqamli avlod qizlari — 2025” respublika tanlovi o‘tkazildi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar sohasiga qiziquvchi iqtidorli o‘quvchi va talabalar orasidan eng munosiblarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan, 2021-yildan buyon muntazam o‘tkazib kelinayotgan tanlov qisqa muddatda qizlarning axborot texnologiyalari, innovatsiyalar va startap faoliyatiga qiziqishini oshirdi. Ta’lim va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida ularning faol ishtirokini kengaytirib, loyiha asosida ishlash, kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Ta’lim, “yashil iqtisodiyot”, sun‘iy intellekt va iqlim o‘zgarishi sohalaridagi startap g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, raqamli ta’lim va

Sun‘iy intellekt, “yashil iqtisodiyot” va iqlim o‘zgarishi — loyihaning bosh yo‘nalishlari

— Sharq mamlakatlarida yaratilgan badiiy asarlarga nazar tashlasak, ijtimoiy hayotga xos hamma go‘zallik, jumladan, tabiatga xos ko‘rkamlik ham ayollar tasviri orqali aks ettirilganini ko‘ramiz. “Avesto”da ham ayol qalbining buyukligi ona zamin saxovatiga tenglashtirilgan. Allomalarimiz, mutafakkiru musavvirlerimiz asarlarida ham ayollarga xos nazokat, sabr-qanoat bilan birga ularning oila oldidagi, umuman, odam va olam oldidagi burch va mas’uliyati ehtirom bilan tarannum etilgan, — deydi “Digital Generation Uzbekistan” loyihasi direktori Azamat Jalolov. — O‘zbek ayolining haqiqiy qiyofasini tasavvur qilmoq uchun u bosib o‘tgan uzoq yo‘lga, avvalo, uning o‘tmishiga, so‘ng esa kechagi va bugungi kuniga chuqur nazar tashlab, kelajagi xususida o‘ylash mumkin. Sohbiyjonning suyuqli rafiqasi Saroyulkxonim, Zahiriddin Muhammad Boburning buvisi Eson Davlatbegim kabi momolarimiz jamiyat hayotida muayyan mavqega ega bo‘lgan. Alisher Navoiy



bobomizning “Farhod va Shirin” dostonida ta’riflangan olimla qizlar, jumladan, mantiq ilmda tengsiz Diloso, munajjim Gulandom, hikmat fani bilimdoni Parizod obrazlari ham real hayotdan olingan. Ularning prototipi Hazrat bilan bir davrda yashagan zakiy momolarimizdir. Shunday ekan, bugun zamondoshlarimiz bo‘lgan zukko opa-singillarimizni qadrlash burchimizdir. Xalqaro hamjamiyatda munosib o‘ringa ega O‘zbekistonning davlat va jamiyat



gender tenglik sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadlarini amalga oshirishda davom etmoqda. “Raqamli avlod qizlari — 2025” tanlovi raqamli davrda ayollar yetakchiligini qo‘llab-quvvatlash borasidagi muhim qadam bo‘ldi va bugun inson kapitalini rivojlantirish, raqamlashtirish bo‘yicha milliy strategiyalarga amaliy hissa qo‘shmoqda. Qizlardan iborat milliy raqamli avlod klubini tashkil etish iqtidorli yoshlarning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va eraga mamlakat transformatsiyasida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayollarning roli, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o‘rni har qachongidan-da muhim. Shu bois, islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi tashabbuslar bilan chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar, o‘zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishini ta’minlashdan iborat.



Bugun mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga yangi imkoniyatlar yaratib berish maqsadida qonunchilikda qator imtiyozlar nazarda tutilgan. Bu yo‘nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida “Raqamli avlod qizlari” loyihasi bilan ham ayol-qizlarning axborot texnologiyalar sohasidagi faolligini oshirish, ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish hamda ishlab chiqilgan g‘oya va loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsad qilingan. Bu yilgi “Raqamli avlod qizlari” tadbirida mahoratlilar mentorlar ishtirokida ta’lim, sun‘iy intellekt, “yashil” iqtisodiyot va iqlim o‘zgarishi kabi yo‘nalishlarda mashg‘ulotlar bo‘lib o‘tdi.

Shuningdek, tadbirda MIT universiteti (AQSH) xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i Julia Reynolds, Marshall Cavendish Education (Singapur) tashkiloti hududiy boshqaruvi raisi o‘rinbosari Khairi Abdullah va boshqa nufuzli spikerlar ishtirok etdi. Mashg‘ulotlar musobaqa tarzida tashkil etildi. Unda ishtirokchi qizlar startap loyihalarini ishlab chiqdi hamda taqdimot qildi. Shuningdek, tadbir davomida ekspertlar bilan raqamli iqtisodiyot mavzusida davra suhbatlari va bellashuvlar ham o‘tkazildi. G‘oliblar tadbirning tantanali yopilish marosimida qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

“Raqamli avlod qizlari” loyihasida nafaqat o‘zbekistonlik, balki sohaga qiziquvchi xorijlik o‘quvchilar ham qatnashib kelmog‘da. Xususan, o‘tgan yillarda “Emirates National School” (BAA)ning 30 o‘quvchisi va afg‘onistonlik 23 qiz loyihada bilimni sinab ko‘rdi. O‘tgan davrda mazkur loyiha doirasida ishtirokchilar tomonidan 400 dan ortiq loyiha ishlab chiqildi.

2024-yilda loyihada g‘olib bo‘lgan 15 qiz BAAda ta’lim sayohatida bo‘ldi. Joriy yilda ham g‘oliblar xorijiy davlatga ta’lim sayohati yo‘llanmasini yutib oldi.

Bitta qizni o‘qitsangiz, butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz

Har qanday mamlakatning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha yurtidagi yigit-qizlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga e’tibor bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri. Davlat va jamiyat boshqaruvida ham, sun‘iy intellekt va robototexnikada ham, umuman, barcha soha rivojida salohiyatli yoshlar muhim o‘rin tutadi. Sababi ular jamiyat uchun “yangi qon” vazifasini o‘taydi. Yangidan yangi tashabbus va g‘oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda ana shu qatlamning nuqtayi nazarini va sa’y-harakatlarini alohida ahamiyat kasb etadi.

— Bugun jamiyatimizning ilmiy-texnikaviy faoliyatida xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda. Olima ayollar tomonidan ilm-fan sohasidagi izlanishlar ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy-siyosiy sohalar rivojiga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Zero, o‘tmishga nazar solsak, Ada Lavleys tarixdagi birinchi dasturchi ayol. O‘nlab dissertatsiya yozgan olimlar erisha olmagun natijaga Ada atigi ellik sahifali maqolasi bilan erishgan, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xalqaro aloqalar boshqarmasi mas’ul xodimi, loyiha koordinatori Muxlisa Mamajonova. — Fikr egalariidan biri bejiz “Bitta qizni o‘qitsangiz, butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”, demagan. Buning zamirida hayotiy haqiqat borligini, albatta, hammamiz yaxshi bilamiz. Qizlarning ilmiy bo‘lishini rag‘batlantirish uzoqni ko‘zlab bosilgan muhim qadamdir. Bugungi talaba qiz ertaga o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishi bilan birga, ilmiy, intellektual salohiyatli, keng dunyoqarashga ega farzandni tarbiyalaydigan ona ham

bo‘ladi. Ma’rifatli ayol o‘z sohasida ham, oilada ham kelajakka daxldor to‘g‘ri qaror qabul qilinishiga munosib hissa qo‘shadi. Bu yil “Raqamli avlod qizlari” loyihasining beshinchi mavsumi tashkil etildi. Ilk bor o‘tkazilganida unga ishtirokchi sifatida qo‘shilganman.

O‘tgan yillarda loyihaning turli yo‘nalishida ishtirokchi, volontyor, PR menejer bo‘lib ishladim. Ayni damda esa loyiha koordinatori bilan birman. Universitetda — bakalavriat bosqichining ilk yillarida bu loyihaga kirib kelgan bo‘lsam, yillar mobaynida u meni, umuman, unda ishtirok etganlarning saviyasini o‘stirdi, tarbiyaladi, rivojlantirdi. Jamoa bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilishimzga yordam berdi. Jamoatchilik oldida nutqimiz ravon



bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Aynan shu loyiha jamoa tarkibida qanday ishlash, loyihalarini qanday yuritish bo‘yicha bitmas-tuganmas tajribalar taqdim etgan katta maktab vazifasini o‘tadi deb bemalol ayta olaman.

Xorijda, masalan, yetakchi universitetlarga o‘qishga hujjat topshirilayotganda nomzodning nafaqat o‘rtacha bahosi yoki til bilish sertifikatlar darajasiga, balki mana shunday ijtimoiy faolligiga, volontyorlik loyihalaridagi ishtirokiga, inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashi yoki qizlar ta’limiga e’tibor berishiga ko‘maklashish bo‘yicha qilgan ishlariga alohida urg‘u beriladi. Bunga o‘zimizni misol qilishim mumkin. Mana shu loyihada orttirgan tajriba natijasida dunyoning ilg‘or OTMlari 100 taligi ro‘yxatidan o‘rin olgan Glazgo universiteti (Buyuk Britaniya)ga o‘qishga qabul qilindim. U yerda magistratura muvaffaqiyatli tamomlab, bugun Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida mehnat qilayman.

Ochig‘i, loyihadan mendek minnatdor odam bo‘lmasa kerak. Sababi ushbu tadbir tufayli Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori bo‘ldim, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasiga aylandim. Yutuqlarimning har birida mana shu startaplarda orttirgan malakam, ustozlardan olgan bilimlarim, shubhasiz, qo‘l keldi. O‘ylaymanki, “Raqamli avlod qizlari” loyihasi bundan keyin ham O‘zbekistonning eng chekka hududlaridagi iqtidorli qizlarni qamrab olishda, yangi-yangi yulduzlarni kashf qilishda davom etadi.

Loyihaning joriy yilgi mavsumi boshqa mavsumlardan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turdi. Chunki bu yil Xitoy, Ozarbayjon va Iordaniyadan 30 dan ortiq qizni yurtimizga taklif qildik. Bu yerda ularning fikr almashishi, tajribalarni ko‘proq o‘rtqolashib, do‘stona bahslashishi, bir-birining kamchiliklarini to‘ldirishi uchun qulay sharoit yaratib berdik. Bundan, albatta, o‘zbek qizlari ko‘proq manfaatdor bo‘ldi. Boisi, ular xalqaro maydondagi tengdoshlarining fikrlarini tingladi, bu orqali xorijlik do‘stlar orttirdi, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha startap loyihalarini realizatsiya qilish uchun kuchli va zaif jihatlarni birgalikda muhokama qildi.

G‘ururlanib aytamiz: 2021-yildan buyon an’anaviy o‘tkazib kelinayotgan “Raqamli avlod” ma’rifiy loyihasi shu kungacha 7000 dan ziyod qizni kashf etdi. Undagi qanchadan qancha g‘oya, startaplar yirik loyihalarga aylandi. Joriy yilda qizlarimiz juda faol ishtirok etdi.

Texnologiya sohasida o‘zbek qizining qiyofasi bo‘lishi kerak

— Aholi orasida o‘tkazilgan ko‘plab so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, hali ham jamiyatda texnika fanlari qizlardan ko‘ra o‘g‘il bolalarga xos degan fikrlar mavjud ekan. Bu kabi qarashlar qanchadan qancha ayol-qizlarning texnologiyadan tez “sovishi” va ayollar uchun an’anaviy sohalariga ketishiga olib keladi. Xotin-qizlarning texnologiya va innovatsiyalar sohasiga to‘la jalb etilishiga ko‘maklashishdan hamma birdek manfaat ko‘rishini unutmashimiz zarur, — deydi “Digital Generation Uzbekistan” loyihasida faoliyat yuritayotgan Muhammadkarim To‘xtaboyev. — Olimalar va ayol texnologlar umumbashariy muammolar ustida bosh qotirishga kirishsa, o‘sha muammolarga yechim topish imkoniyati, tabiiyki, ortadi.

Loyihada juda ko‘p iqtidorli qizlarni o‘zim uchun kashf etdim. Masalan, Charos Abdusattorova degan qiz bor. “Yangi O‘zbekiston” universitetining 4-kurs talabasi. “Raqamli avlod qizlari” loyihasida uch yildan buyon ishtirok etib, ikki marta g‘oliblikni qo‘lga kiritgan. Joriy yilda esa mentor sifatida qatnashdi. Birinchi yillarda quyosh panellarini tozalash servisi haqidagi startap loyihasi bilan ishtirok etgandi. Bu loyiha quyosh panellari samaradorligini muayyan ma’noda oshirib beruvchi ajoyib loyiha bo‘lib, 2-o‘ringa loyiq ko‘rilgandi. O‘tgan yili esa u jamoasi bilan birga ta’limni rivojlantirish texnologiyasi loyihasi bilan qatnashdi. G‘oliblar qatorida Birlashgan Arab Amirliklariga ta’lim sayohatini yutib oldi.



“Raqamli avlod qizlari”da startap yo‘nalishi bo‘yicha qizlarimiz, avvalo, rejalashtirilgan o‘quv qo‘llanmalar asosida bilim oladi va jamoaviy tarzda muayyan loyiha ustida ish boshlaydi. Startap loyihalarini ishlab chiqishda qizlarimizga mentorlar tomonidan tavsiya va ko‘rsatmalar, albatta, berib boriladi.

Masalan, hafta davomida Buyuk Britaniyaning “Fintech” kompaniyasida mahsulot marketing menejeri Gulnur Esova bu yilgi loyiha doirasidagi davra suhbatlarida ishtirok etdi. U xalqaro loyihalarini taqdimot qilish etikasi bo‘yicha tajribasi bilan o‘rtqolashdi. Germaniyaning RPTU Kayzerslautern-Landau universiteti “Machine Learning” ilmiy guruhining yordamchi tadqiqotchisi Latofat Bobojonova ham davra suhbatlarida qatnashib, katta kompaniyalarda amaliyot o‘tash va akademik karyera qilish bo‘yicha maslahatlarini ayamadi.

“Raqamli avlod qizlari” loyihasi yurtimizdagi ishtiyiqi baland, iqtidorli barcha qizni bir joyda to‘plab, o‘zaro tajriba almashish uchun o‘ziga xos g‘oyalarni maydoni vazifasini o‘taypti. U orqali bugun qizlarning raqamli va tadbirkorlik ko‘nikmalari oshdi, STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) sohalarida faollashdi, tanlov g‘oliblari uchun AQSHga o‘quv safari tashkil etildi, barqaror raqamli qizlar hamjamiyati shakllantirildi.

O‘tmishni asragan holda kelajakni bunyod etish loyihasi

— “Raqamli avlod” qizlari tanlovi men uchun yangi olamni ochdi. Yuzlab iqtidorli qizni ko‘rib, ular bilan fikr almashib, katta salohiyatli avlod yetishib kelayotganini his qildim. Har bir qizning loyihasi puxta o‘ylangan, jamiyatga foydasi tegishiga qaratilgan, — deydi “Yangi O‘zbekiston” universitetining yoshlar bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi, mavsum g‘oliblaridan biri Nigora Asqaraliyeva. — Men va o‘quvchim ushbu tanlovga Chig‘atoy.ai nomli loyihamiz bilan qatnashdik. Shogirdim Shabnam Ixtiyorova Abdulla Qodiriy ijod maktabi o‘quvchisi. Matnshunoslik fani o‘qitilgani uchun uning eski o‘zbek yozuvidan xabari bor. 2023/2024-o‘quv yilida shu maktabda ishlaganimda u bilan tanishgandim. To‘garagimning faol a‘zolaridan edi. Matnshunoslik fanlariga kirganimda asosiy yordamchim bo‘lgan.

Mutaxassisligim o‘zbek filologiyasi bo‘lishiga qaramay, axborot texnologiyalariga qiziqishim Tahrirchi.ai (hozirgi Tilmoch.ai) loyihasida ishlaganimda boshlangan. Ushbu loyihada 1,5 yil ishlash, tartapning noldan ko‘tarilishiga, qiyinchiliklariga,



tavakkalchiliklariga guvoh bo‘lgandim. Tilmoch.ai ustida ishlayotganimizda sun‘iy intellekt modeliga o‘zbek tilini o‘rgatish uchun tarjima asrlar bazasini yig‘ish menga topshirilgandi. O‘shanda eski o‘zbek yozuvidagi ma’lumotlarni ham yig‘ib, o‘rgatib bo‘lmagan degan fikr xayolimdin o‘tgan.

“Raqamli avlod qizlari”ning 2025-yilgi mavsumiga shu g‘oya bilan chiqdik. Chig‘atoy.ai aholi qo‘lidagi qo‘lyozmalarni yig‘ish, restavratsiya qilish, kataloglashtirish va sun‘iy intellekt yordamida o‘qib, hozirgi lotin alifbosiga transliteratsiya qilish loyihasidir. Loyihamiz shiori — tarixni asragan holda kelajakni barpo etish.

Startap haqida o‘ylaganimizda, albatta, uning chet eldagi muqobilarni ko‘rib chiqdik. Yevropada Transkribus, Turkiyada Translyet.com, qalam.ai, Stanford universitetida Arabic OCR kabi modellalar, platformalar bor ekan. Biz Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini shu platformalarda sinab ko‘rdik. Eng aniq o‘qigan platforma qardoshlarimizning Translyet.com platformasi bo‘lib, faqat uchun, matni turkchaga tarjima qildi. Misol uchun, “yaxshi kitob” jumlasini kiritdik, “iyi kitap” deb chiqardi. Shuningdek, boshqa 28 tilga tarjima qila olishi bizni qoyil qoldirdi. Ana shundan keyin bu g‘oyani amalga oshirsa bo‘larkan degan ishonch bizni yanada ruhlantirdi.

Ushbu tanloving asosiy yutug‘i boshqalar uchun AQSHga ta’lim sayohati bo‘lsa, biz uchun yangi loyihaning tug‘ilishi va uni ommaga taqdim etishidir. Ayniqsa, axborot texnologiya sohasida yangi bo‘lgan bizi uchun. Agar bu loyiha chindan amalga oshsa, loyiha rahbari Azamat Jalolov aytgandek, moziyga ismlarimiz muhrilanishi mumkin.

Jamiyatning demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan nechog‘liq ilgilarib ketgani uning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma’naviy saviyasi bilan belgilanadi. Zero, oqila, go‘zal ayollar g‘amxo‘rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab tutadi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

yangi konsepsiyada aks etgan



Ilhom MA'RUPOV,
Din ishlari bo'yicha qo'mita
raisi maslahatchisi

O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqdi. Shunday muhim pallada yurtimizda diniy-ma’rifiy sohada ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotir. Mamlakatimizda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlashga katta e’tibor berilmoqda. Bu jarayonda fuqarolarning vijdon erkinligi huquqlarini ta’minlash borasidagi yangilik va yengilliklarni alohida qayd etish, xususan, ikki muhim hujjatni eslab o‘tish lozim.

Birinchisi, “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qonun.

Ikkinchisi, Prezidentimizning “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni. Ushbu ikki muhim hujjat tom ma’noda diniy-ma’rifiy soha samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishning mustahkam huquqiy asosi bo’ldi.

Hozir ko’pkonfessiyali jamiyatlarda davlat va din munosabatlarining to’g’ri yo’lga qo’yilishi turli din vakillari o’rtasida bag’rikenglik muhiti barqarorligini ta’minlaydi. Bu tinchlik-osoyishtalikning muhim omillaridan biri. Ayniqsa, dunyo miqyosida ekstremizm va terrorizm muammosi xavf solib turgan, dindin siyosiy maqsadda foydalanishga urinishlar kuchaygan bir paytda aksar mamlakatlarda davlat va din munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishga asosiy masala sifatida qaralmoqda.

Hozir axborot olish va uzatish imkoniyati kengayib, ma’lumot tarqatuvchi resurslar tobora ko’payib boryapti. Bular aholining ijtimoiy, axloqiy va diniy qarashlariga jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda. Ushbu jarayonda davlat va din munosabatlarining to’g’ri va sog’lom belgilanishi — eng asosiy prinsip. Zero, bu masala mamlakat tinchligi, fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kabi juda nozik va dolzarb jihatlariga tegishli. Shuning o’ziyoq fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va davlatning diniy sohadagi siyosati konsepsiyasini zamonga moslab ishlab chiqish zaruratini paydo qildi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi diniy tashkilotlar bilan aloqalar, jamiyatda dinning o’rni kabi masalalarda

davlatning aniq va tizimli qarashlari hamda yo’nalishtirish o’zida mujassam etgan, davlatning diniy sohadagi siyosatini ochiq va shaffof aks ettiruvchi hamda strategik vazifalarni qamrab olgan muhim hujjat sifatida amaliyotga joriy etildi.

Mazkur konsepsiyada vijdon erkinligi huquqi, O‘zbekiston dunyoviy davlat ekaniga oid konstitutsiyaviy qoidalarini ro’yobga chiqarish masalasi, shuningdek, davlatning diniy sohadagi siyosati maqsadi va vazifalari, prinsiplari va ustuvor yo’nalishtirish aniq qilib belgilab berildi. Zero, zamonaviy jamiyatda har qanday davlatning diniy sohadagi siyosatida asosiy tayanch prinsiplar bo’lishi shart. Shu bois, konsepsiyada mamlakatimizning diniy sohadagi siyosati qonuniylilik, vijdon erkinligi, dinning davlatdan ajratilgani, tenglik, erkin tanlov, dinlararo muloqot

Ikkinchisi, diniy jamoa makonida fuqarolar qonunchilikda belgilangan tartibda o’z diniy qarashlarini ifodalashi, ibodatlarini, rasm-rusumlarni yakka holda yoki guruh bo’lib bajarishi.

Uchinchisi, ijtimoiy-siyosiy makonda aqida va qarashlarni qonunga xilof ravishda tarqatishga hamda diniy belgilarga ko’ra siyosiy partiyalarni va siyosiy maqsadlarni ko’zlovchi ommaviy jamoat harakatlarini tashkil etishga yo’l qo’yilmaligi.

Yana bir e’tiborli jihat — konsepsiyada dunyoviy davlatni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishtirish va mexanizmlari aniq va tushunarli bayon etilganidir. Keling, ushbu yo’nalishtirish va ularning mazmun-mohiyati haqida qisqacha to’xtalib o’tsak.

Birinchidan, davlat boshqaruvi yo’nalishtirish davlat boshqaruvi o’z qorollar qabul qilish hamda amalga oshirishda Konstitutsiya va qonunlarga



va o’zaro tushunish kabi prinsiplarga tayanishi ko’rsatiladi.

Davlatning diniy sohadagi siyosati Konstitutsiya va qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Fuqarolar xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqidan erkin foydalanadi. Shuningdek, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqaidan qat’i nazar, qonun oldida tengdir. Ular bir xil huquq va erkinliklarga ega. Turli konfessiyalarga oid tashkilotlar diniy bag’rikenglik, murosas, hurmat va o’zaro tushunish asosida muloqot o’rnatadi. Bularning barchasi yangi konsepsiyada prinsiplar jihatlar sifatida zamonga moslab ochib berilgan.

Shu o’rinda umumjamiyat manfaatlarini va vijdon erkinligi uyg’unligining asosiy shartlarini anglash va anglatish masalasi ham juda muhim ekanini eslab o’tish lozim. Shunga ko’ra, bu jihatlarini “uch makon” tamoyili misolida ko’rib chiqsak.

Birinchisi, fuqarolarning o’z shaxsiy makoni doirasida boshqa shaxslarning manfaatiga daxl qilmay, xohlagan dinga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmasligi.

muvofiq ish tutiladi. Bunda umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy merosni hurmat qilgan holda umumjamiyat manfaatlarini ko’zlash, ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayanish belgilangan. Konsepsiyada aniq mexanizmlar orqali bu yo’nalishtirish har bir jihatni batafsil qamrab olingan.

Ikkinchidan, iqtisodiyotni tartibga solish yo’nalishtirish esa davlat iqtisodiyotini, iqtisodiyot subyektlari o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda empirik dalillar, oqilona tahlil va obyektiv kuzatuvlarga asoslangan iqtisodiy qonuniyatlar, prinsiplar va institutlarga tayanishi ta’kidlanadi.

Uchinchidan, ta’lim yo’nalishtirish o’qitish jarayonida, uni tashkil qilishda va ta’lim xizmatlari ko’rsatishda ta’lim oluvchilarda diniy aqida va qarashlardan xoli tarzda ilmiy bilimlarni, mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish, qarashlar xilma-xilligini hurmat qilish, umumjamiyat manfaatlariga hissa qo’shish g’oyalari belgilangan.

To’rtinchidan, tibbiyot yo’nalishtirish sog’liqni saqlash tizimini tashkil etish, tibbiy xizmatlar ko’rsatish va tibbiy madaniyatni shakllantirishda ilmiy tadqiqotlar, dalillar, tibbiy odob qoidalar, fuqarolarning sog’liqni saqlash huquqlari ustuvorligi prinsiplariga amal qilish qayd etiladi.

Beshinchidan, madaniyat yo’nalishtirish jamiyatning madaniy rivojlanishi jarayonida, jumladan, urf-odatlar, badiiy va amaliy san’at (adabiyot, musiqa, xoreografiya, teatr, kino va boshqalar) sohalarini rivojlantirishda insonparvarlik, tabiatga g’amxo’rlik, milliy va umuminsoniy madaniy merosga hurmat g’oyalari tayanish ta’kidlanadi.

Oltinchidan, nikoh institutini tartibga solish yo’nalishtirish nikoh munosabatlari huquqiy jihatdan tartibga solishda fuqarolarning huquq va erkinliklariga, fuqarolik va oila to’g’risidagi qonunchilikka alohida urg’u berilgan.

Yettinchidan, ijtimoiy axloq va xulq-atvor normalarni shakllantirish yo’nalishtirish ham bugun ko’plab dolzarb masalalarni tartibga solish va huquqlarni ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Jumladan, ushbu yo’nalishtirish shaxsning boshqa shaxslar va jamiyat bilan munosabatlarda, shaxsiy e’tiqodidan qat’i nazar, ularning huquq va erkinligini, shuningdek, vijdon erkinligi huquqini hurmat qilgan holda o’zini oqilona tutishi, insonparvarlik g’oyalari, milliy va dunyoviy qadriyatlarga tayanishi kabi masalalar mohiyatini anglash har qachongidan ham muhim.

Konsepsiya yurtimiz davlatchiligi rivojining boy milliy-tarixiy tajribasiga va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqilgan. U ko’pmillatli va ko’pkonfessiyali mamlakatimizda umumjamiyat manfaatlarini ro’yobga chiqarish, demokratiya, dunyoviylik, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik asosida o’zaro totuv yashash, barqaror muhitni ta’minlashga qaratilgan.



Dolzarb mavzu

TO‘Y SHAXSIY MASALA, BIROQ...

Mamlakatimizda to’ylar xalqimizga xos qadriyatlarni o’zida mujassam etgan, ezgulikka yo’g’rilgan go’zal urf-odatlarini o’zida qamrab olgan ajoyib tantanadir. Xalqimiz orasida “To’yga yetkazsin!” degan ibora keng tarqalgani ham bejiz emas.

Ammo ular bilan bog’liq muammolar asrlar osha yashab kelmoqda. Jadid bobolarimiz to’ylardagi isrofgarchilik haqida kuyinib yozgan. Ha, isrofgarchilik, dabdababozlik, soxta obro’ o’rttirishga urinish kabi salbiy holatlardan, afsuski, qutula olganimiz yo’q. Yillab mehnat qilib, topgan-tutganini to’y bahona sochib yuborgani yetmagandek, qar-z-qavola qilib, oilasini qiyin ahvolga solayotganlar ham yo’q emas. Shu bois, to’ylarni tartibga solishga davlat darajasida e’tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada huquqiy hujjatlar qabul qilinib, to’y o’tkazish bilan bog’liq tartiblar belgilangan. Ammo ularni bajarish, ixcham, isrofgarchiliksiz to’y o’tkazishga da’vat va tavsiyalarga ko’pchilik panja orasidan qarab kelmoqda.

Vaholanki, bitta to’yga ketgan ortiqcha mablag’ bilan yosh oilaning uy-joyli bo’lishiga yordam berish, hayot yo’lida qoqilmaligi uchun tadbirkorlik boshlashiga ko’maklashish, umuman,



Sirojiddin O'SAROV,
journalist

qo’yildi. Zero, to’ylardagi dabdababozlik zamirida korrupsiya mavjudligini inkor qilib bo’lmaydi. Mansab vakolatidan, xizmat mavqaidan foydalanib poraxo’rlikka qo’l urayotganlar, beli og’rimay topgan pulini o’zini ko’z-ko’z qilishga sarflayotganlar milliy

Maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha vazirlik, idoralar rahbarlari mas’uliyati oshiriladi. Davlat xizmatlari darajasi aholi baholaydigan tizimga aylanadi. Eng yomon ko’rsatkichga ega soha rahbarlariga chora ko’riladi.

Muhimi, aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqi ongi yuksaltirilib, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldorlik shakllanadi. Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlangan loyihaga asosan to’ylar tartibga solinadi. Bu mazkur hujjat bilan tasdiqlangan, ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar ro’yxati keltirilgan. Unda joriy yil avgustigacha to’ylar, oilaviy tantanalarda, ma’raka va marosimlar o’tkazilishini tartibga solish bo’yicha parlament palatalari kengashlarining qo’shma qarori qabul qilinishi rejalashtirilgan. Yoshlarda

To’ylardagi dabdababozlik zamirida korrupsiya mavjudligini inkor qilib bo’lmaydi. Mansab vakolatidan, xizmat mavqaidan foydalanib poraxo’rlikka qo’l urayotganlar, beli og’rimay topgan pulini o’zini ko’z-ko’z qilishga sarflayotganlar milliy to’ylarimizning asl shakli shamoyili o’zgarib ketishiga sababchi bo’lmoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



tejamkorlik madaniyatini shakllantirish bo’yicha yangi mexanizmlar nazarda tutilgan.

Mazkur loyihaga parlament, Madaniyat vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo’mitasi, Din ishlari bo’yicha qo’mita mas’ul etib belgilangan. Muhimi, ushbu farmon e’lon qilganidan keyin to’ylar va oilaviy tadbirlarni kamtarona va oqilona o’tkazishga qaratilgan tashabbuslar xalqimiz tomonidan keng qo’llab-quvvatlandi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda to’y va boshqa marosimlarni tartibga solish, masalan, to’y kortelari chiqarish, ortiqcha sarf-xarajati kamaytirish va milliy an’analarga mos o’tkazish bo’yicha muhokamalar davom etmoqda. Ba’zi hududlarda xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan to’ylarni o’tkazish tartibini belgilash bo’yicha tavsiyalar berilmoqda.

Madaniyat vazirligi loyihasining har tomonlama puxta ishlab chiqilishi, kelgusida xalqimiz manfaatlariga xizmat qilishi bo’yicha zarur chora-tadbirlar ko’rmoqda. Yetuk olimlar, san’at va madaniyat namoyandalari to’ylarni ixcham va chiroyli o’tkazish, xalqimiz qadriyatining chinakam ko’zgusiga aylantirishga qaratilgan tavsiya va takliflari asosida hujjat mukammal tayyorlanishiga munosib hissa qo’shiladi.



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulligiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.
36811 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. **Qog’oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko’chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko’chasi, 85-uy

O‘Z A yakuni — 21:00 Topshirildi — 22:55